

INTERNATIONAL JOURNAL OF PHILOSOPHICAL STUDIES AND SOCIAL SCIENCES

ISSN-E: 2181-2047, ISSN-P: 2181-2039

<http://ijpsss.iscience.uz/index.php/ijpsss>

Vol 3, Issue 3 (2023)

NOSIROV SHERZOD



sherzodnosirov094@gmail.com

Lecturer at Bukhara State
University

HISTORIAN SCIENTIST POLAT SOLIYEV IS A RESEARCHER OF THE HISTORY OF BUKHARA

**УЧЕНЫЙ-ИСТОРИК ПОЛАТ СОЛИЕВ –
ИССЛЕДОВАТЕЛЬ ИСТОРИИ БУХАРЫ**

**TARIXCHI OLIM PO'LAT SOLIYEV – BUXORO
TARIXINING TADQIQOTCHISI**

Abstract. In this article, the works of the historian, teacher of Uzbek historians, the first doctor of historical sciences Polat Soliev, on the history of the Bukhara oasis, in particular, on socio-economic, political, foreign policy and trade relations during the period of the Mangyts who ruled Bukhara, are highlighted on the basis of ancient sources, and their works and articles studied in later periods are analyzed comparatively.

Key words: mangit, "Revolution", Ark, Amir Abdulahad, archive, Bukhara, Somonites.

Аннотация. В данной статье труды историка, учителя узбекских историков, первого доктора исторических наук Полата Солиева, по истории Бухарского оазиса, в частности, по социально-экономическим, политическим, внешнеполитическим и торговым связям в период мангытов, правивших Бухарой, освещены на основе древних источников, а их труды и статьи, изученные в более поздние периоды, проанализированы сравнительно.

Ключевые слова: мангит, «Революция», Арк, Амир Абдулахад, архив, Бухара, Сомониты.

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarixchi olim, o'zbek tarixchilarining ustoziga, birinchi tarix fanlari doktori Po'lat Soliyevning Buxoro vohasi tarixi, xususan Buxoroda hukmronlik qilgan mang'itlar davridagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, tashqi aloqalar, savdo-sotiq munosabatlariiga oid qadimgi manbalar asosida yoritilgan asarlari va ularning keyingi davrlarda o'r ganilgan asarlari va maqolalari qiyosiy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: mang'it, "Inqilob", Ark, amir Abdulahad, arxiv, Buxoro, Somoniylar.

Kirish (Introduction)

Tarix kishilik jamiyatni bosib o'tgan zalvorli yo'lni qonuniyatli bir jarayon tarzida atroflicha o'r ganuvchi fan sifatida ijtimoiy fanlar (adabiyot, huquqshunoslik, falsafa) tizimida muhim o'r in tutadi va keng xalq ommasini, ayniqsa yosh avlodni o'z Vatani va xalqiga sadoqat ruhida tarbiyalash ishiga xizmat qiladi. Boshqacha qilib aytganda biz birinchi navbatda kimligimizni, xalqimizning o'q tomiri qayerdaligini, uning shakllanish jarayoni qanday kechganligini bilishimiz zarur. Bu borada ko'p yillik tarixiy va ilmiy izlanishlar orqali Buxoro vohasi tarixini tadqiq qilgan tarixchi olim Po'lat Soliyev ilmiy ijodi maydonga keladi.

Olim izlanishlari samarasi o'laroq dunyoga kelgan bir qator asarlar aynan Buxoro vohasini kengroq va chiqurroq mushohada etgan holda o'r ganish imkonini beradi. Olimning "Buxoro tarixi"

Copyright © Author(s). This article is published under the Creative Commons Attribution (CC BY 4.0) licenses. Anyone may reproduce, distribute, translate and create derivative works of this article (for both commercial and non-commercial purposes), subject to full attribution to the original publication and authors. The full terms of this license may be seen at <https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/legalcode>

INTERNATIONAL JOURNAL OF PHILOSOPHICAL STUDIES AND SOCIAL SCIENCES

ISSN-E: 2181-2047, ISSN-P: 2181-2039

<http://ijpsss.iscience.uz/index.php/ijpsss> Vol 3, Issue 3 (2023)

(1923) hamda “Mang‘itlar davrida Buxoro o‘lkasi” (1925) asarlari aynan mana shunday asarlar sirasiga kiradi.

Adabiyotlar Tahlili va Metodologiya (Methods)

Buxoro tarixini o‘rganish juda ham ko‘plab ilmiy tahlillar va ilmiy asarlar bilan bog‘liq. Buxorning ko‘p yillik tarixi, xususan, amirlik davrida mang‘itlar hukmronligi davrida Rossiya imperiyasi istilochi sifatida kirib kelgunga qadar bo‘lgan davr tarixi Polat Soliyev asarlari va ularning tahlilida quyidagicha manbaviy tadqiqotlarga bo‘linadi

1. Sovet davrida yaratilgan ilmiy tadqiqotlar.
3. Mustaqillik yillarda O‘zbekistonda nashr etilgan tadqiqotlar.
4. Xorijda yaratilgan tadqiqotlar.

Tahlil va Natijalar (Analysis and Results)

Boy tarixga ega bo‘lgan Buxoro vohasi va uning tarixi hamma davrlarda ham tarixchilarning eng asosiy qiziqishlarining markazida bo‘lgan. Jumladan tarixchi olim Po‘lat Soliyev ham o‘z davrida Buxoro vohasi tarixi xususida ko‘pgina tadqiqotlarni olib borishga muvoffaq bo‘lgan. Professor Po‘lat Soliyevning Buxorodagi ijodi asosan O‘rtta Osiyodagi eng qiziqarli va kam o‘rganilgan davrlardan biri o‘tmishini o‘rganishga bag‘ishlanib, ana shu davrda uning “Buxoro tarixi” (1923) hamda “Mang‘itlar davrida Buxoro o‘lkasi” (1925) nomli asarlari chop etildi. Bu yerda taqdir unga har qanday tarixchi orzu qilishi mumkin bo‘lgan ulkan sovg‘a in’om etdi – Po‘lat Soliyev Buxoro amirlarining boy kutubxonasi va arxivida birinchilar qatorida ishlash imkoniga ega bo‘ldi. Keyinchalik unga Abdurauf Fitrat va Lutfulla Alyaviy bilan birgalikda bu arxiv va kutubxonani saralab, ilmiy tadqiqot institutiga topshirish uchun tayyorlash vazifasi yuklatiladi. ”Inqilob” jurnalining bir sonida bu qadimiy arxiv va kutubxonadagi saralash ishlari haqida hisobot ham chop etilgan.

1921–1922 yillarda Po‘lat Soliyev arab va fors-tojik tillarida yozilgan, Buxoroda saqlangan asarlar ustida tadqiqotlar olib boradi. 1924-yil avgustida Buxoro Xalq Maorif Nozirligi Po‘lat Soliyevni Moskvaga, Buxoro Maorif uyiga o‘qituvchi sifatida jo‘natadi. 1924-yil oxiridan boshlab u SSSR xalqlari Markaziy nashriyotida ilmiy xodim, ayni paytda qizil professura institutida va Sverdlov nomli Kommunistik Universitetda tinglovchi ham edi. Ushbu faoliyati davomida olim o‘zi uchun juda qimmatli hisoblangan ma’lumotlarni jamlashga erishdi.

1920-yil 2-sentyabrda Buxoroda amirlik tuzumi ag‘darib tashlangach, 1920-yil 8-oktyabrda xalq vakillarining I Umumbuxoro qurultoyi Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (BXSR) tuzilganligini e’lon qiladi. 1920-yil 11-noyabrda BXSR Maorif nozirligi “Buxoroda inqilob tarixi”ni nashr etish va uning mualliflarini tasdiqlash haqida qaror qabul qiladi. Bu mualliflar qatoridan Po‘lat Soliyev, Sadreddin Ayniyilar ham joy olgan. 1922-yildan boshlab Po‘lat Soliyev BXSR Maorif nozirligining Ilmiy kengashi raisi, ayni paytda o‘qituvchilar institutida arab adabiyoti tarixi, arab tili nazariyasi va amaliyotidan dars berib, “Maorif” jurnalining muharriri sifatida ham ish olib boradi.

Po‘lat Soliyev Buxorodagi ilmiy ijodi va ilmiy tadqiqotlar safari unga benihoya katta tarixiy imkoniyatlarni berdi. Olim Buxoro amirlarining boy kutubxonasida ishlash imkoniyatiga ega bo‘ldi va bu kutubxona xazinasidan joy olgan, fors-tojik tilida bitilgan nodir, qimmatli tarixiy manbalar bilan tanishdi. Bu yerdagi minglab sharq qo‘lyozmalarini va asarlarni ko‘rib hayratda qoldi. Mana shu

**INTERNATIONAL JOURNAL OF PHILOSOPHICAL STUDIES AND
SOCIAL SCIENCES**

ISSN-E: 2181-2047, ISSN-P: 2181-2039

<http://ijpsss.iscience.uz/index.php/ijpsss>

Vol 3, Issue 3 (2023)

imkoniyat olimga ko‘plab tarixiy ma’lumotlarni to‘plashiga katta yordam berdi. Tarixchi olim keyinchalik yozgan Buxoro tarixiga oid asarlarida ushbu qo‘lyozmalardan foydalanadi.

Bundan anglashiladiki, olim O‘zbekiston tarixini yaratish ishiga rahbarlik qilar ekan avvalambor, shu zaminda yaratilgan birlamchi manbalar va O‘rta Osiyo tarixiga oid chet ellik tadqiqotchilarni ilmiy me’roslarini birinchi navbatda tahlilini olib borganligiga shubha yoq.

Po‘lat Soliyev Buxoro tarixiga oid qo‘lyozma asarlar fondini tuzishni ham rejalashtirgan edi, lekin bu amalga oshmadni. Po‘lat Soliyev Buxoro amirlarining qarorgohi bo‘lgan Ark va boshqa joylarda bo‘lib, Buxoroning o‘tmishini, bu yerda umrguzaronlik qilgan xonlar, amirlarning shaxsiy hayotini o‘rganib, qimmatli tarixiy ma’lumotlar to‘pladi va, yuqorida ko‘rsatib o‘tganimizdek, “Buxoro tarixi” (1923) va “Mang‘itlar davrida Buxoro o‘lkasi” (1925) kabi asarlarini yaratdi. Bu asarlarning ilmiy qiymati shundaki, asarda eng qadimgi manbalar asosida qadimda Buxoro yerlarida yashagan xalqlar tarixi, aholining qay tariqa shakllanganligi bilan bir qatorda Buxoro amirlarining ichki va tashqi siyosati, amirlilik tarikibiga kirgan bekliklar va hududlar, shuningdek, xalqning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli bayon qilinadi.

Olimning “Buxoro tarixi” nomli birinchi asari sharq qo‘lyozma manbalari asosida yozilgan bo‘lib, o‘zining ilmiy qimmatga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Asarning xronologik chegarasi Buxoroning miloddan avvalgi VI–V asrlardan to Somoniylar davlati boshqaruvigacha bo‘lgan davri tarixini o‘z ichiga oladi. Tarixchi olim ushbu tarixiy tadqiqotini yozishda bir qancha sharq qo‘lyozma manbalariga murojaat qilgan. Masalan, olim o‘z davrida ma’lum va mashhur bo‘lgan muarrixlar – Narshaxiy, Mirxon, Xondamir, arab tarixchisi Ibn al Asir, Herman Vamberi, shuningdek, taniqli rus sharqshunos va tarixshunoslari bo‘lgan V. Bartold, Jukovskiy, Krimskiy larning asarlaridan ham foydalangan.

Po‘lat Soliyevning “Mang‘itlar davrida Buxoro o‘lkasi” asari ayniqsa diqqatga sazovor bo‘lib, tarixchi ushbu asarini Buxoroda hukmronlik qilgan so‘nggi mang‘itlar sulolasini davri tarixiga bag‘ishlaydi. Olim o‘z asarida asosan mang‘it amirlarining ichki va tashqi siyosati bilan birga, Buxoro amirligining Hindiston, Afg‘oniston va Rossiya bilan iqtisodiy va siyosiy munosabatlarini aks ettirgan. Asarda amir Nasrullo (hukmronlik davri: 1826–1860), amir Muzaffar (hukmronlik davri: 1860–1885) va amir Abdullah (hukmronlik davri: 1885–1910) davri tarixi qisqacha bayon qilingan. Po‘lat Soliyev asarining kirish qismida quyidagi ma’lumotlarni keltirib o‘tadi:

“IX–X asr, XV asr milodlarida o‘z vaqtig‘a yarasha Buxoroning dong‘i, Buxoroning o‘zidagina yetishgan olimlari, shoirlari bor edi. Buxoroning o‘z vaqtidag‘i ilm-maorifi, savdo-sanoati sharq va g‘arb olamidan juda ko‘p kishilarni o‘ziga torturg‘on edi.

Buxoro o‘zining hayotida bo‘lar vaqtida qora va yomon bir hayot o‘tkazgani ma’lum emasdir. Buxoro boshidan juda ko‘p davrlar kechirdi, turli qabilalar, turli xonliklar hokimiyat surdilar.

IX asrdan, Somoniylar davrindan olib Temuriylarning so‘nggi vaqtigacha Buxoroning hayoti yorug‘ va ravshan kunlar ko‘p ko‘rinadur. Qay vaqtiki, Buxoroning taqdiri va istiqboli mang‘itlar qo‘lig‘a, ayni Mir Olimning nasllari idorasiga o‘tdi, shul kundan boshlab Buxoroda hayot so‘ndi, ko‘ngilsiz kunlar bilan Buxoroning holi va istiqboli cho‘lg‘ondi”. Ushbu fikrlardan ko‘rinadiki, tarixchi olim asarda mang‘itlar idorasining salbiy tomonlarini ko‘proq sharhlab o‘tadi.

Tarixchi olim asarida faqatgina Buxoro hududlarini emas mang‘itlar hukmronligi davrida Buxoro bilan bog‘liq bo‘lgan hududla tarixiga oid qimmatli ma’lumotlarni ham berib o‘tadi. Po‘lat Soliyev o‘z asarida amir Shohmurod tomonidan Marv shahrining istilo qilinishi haqida ko‘proq to‘xtalib, ushbu shaharga ko‘p talafot yetkazilganligi va aholisi turli hududlarga tarqalib ketganligini izohlab o‘tadi. Olimning o‘z davrida yirik madaniyat va ma’naviyat markazi bo‘lgan Marv haqida keltirgan ma’lumotlari muhim ahamiyatga molik. Jumladan, Marv shahrining o‘rta asr davri tarixiga

Copyright © Author(s). This article is published under the Creative Commons Attribution (CC BY 4.0) licenses. Anyone may reproduce, distribute, translate and create derivative works of this article (for both commercial and non-commercial purposes), subject to full attribution to the original publication and authors. The full terms of this license may be seen at <https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/legalcode>

INTERNATIONAL JOURNAL OF PHILOSOPHICAL STUDIES AND SOCIAL SCIENCES

ISSN-E: 2181-2047, ISSN-P: 2181-2039

<http://ijpsss.iscience.uz/index.php/ijpsss>

Vol 3, Issue 3 (2023)

murojaat etib, olim arab tarixchi va yozuvchilarining asarlaridan parchalar keltirish asnosida o‘z fikrlarini bildiradi. Po‘lat Soliyev o‘z asarida quyidagi muhim ma’lumotni keltirib o‘tadi:

“Marvning o‘rta asr hayoti to‘g‘risida arab yozg‘uvchilaridan mashhur Yoqut Hamaviy (Havafiy) janoblari shu satrlarni yozadur: ”Men Marvni 1219-yilda tashlab chiqdim, agarda totorlarning hujumi va ularning falokati bo‘lmasa edi, men Marvda yashab o‘scha yerda o‘lar edim. Xalqining yaxshilig‘i, shirin so‘zlig‘i, ilmi meni o‘ziga jalb etdi. Men turg‘on vaqtida Marvda 10 dona kutubxona bor edi, juda katta kutubxonadur. Birisi “Aziziya”, ikkinchisi “Katoliya” nomlarida bo‘lib, ”Aziziya”da 12000 kitob bor edi”.

Shuningdek, asarda Angliya va Rossiyaning O‘rta Osiyo masalasidagi ziddiyatlari, elchilik aloqalari, Rossiya tomonidan O‘rta Osiyoning istilo qilinishi, savdo-sotiq munosabatlari va boshqa masalalar haqida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

Xulosa (Conclusion)

Xulosa qilib aytganda, ushbu ma’lumotlardan kelib chiqib tarixchi olim Po‘lat Soliyev asarlarida Buxoro vohasi tarixi bilan bog‘liq juda qimmatli ma’lumotlar uchraydi va bizgacha ketib kelgan hudud tarixiga oid bo‘lgan manbalarni to‘ldiradi va ularga aniqlik kiritadi. Buxoroning XVIII-XIX asrlar tarixiga bag‘ishlangan asarlari juda qimmatli bo‘lib, ushbu davrda Buxoro vohasi va unga tutash hududlar tarixi ham aks ettirilgan.

Har qanday vaziyatda ham tarixni xolislik va haqqoniylit asosida yoritgan olim hayoti va uning ilmiy ijodining aynan Buxoro vohasi bilan bog‘liq jihatlati xalqlarning o‘zlikni anglash tushunchalarini yanada boyitadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Maqsud, B. (2021). Buxoro bozorlari. *panjakent-2021. treasury of*.
2. Beshimov, M. (2020). BERUNIY “QADIMGI XALQLARDAN QOLGAN YODGORLIKLER” ASARINING AHAMIYATI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 6(2).
3. Beshimov, M. (2021). ТАРИХ ЎҚИТИШ МЕТОДЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ТУРКУМЛАНИШИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 6(6).
4. Beshimov, M. (2022). ABDULVAHID MUNZIM-ENLIGHTENED POET, STATE AND PUBLIC FIGURE. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 2(6), 52-56.
5. Бешимов, М. К. (2022). MUNZIM ZAMONDOSHI AYNIY XOTIRALARIDA: Beshimov Maqsud Komilovich, Buxoro tarixi kafedrasи o‘qituvchisi, Buxoro Davlat Universiteti. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (6), 15-17.
6. Beshimov, M. (2022). MANG ‘ITLAR DAVRIDA BUXORODA MADANIY HAYOT (me’morchilik, adabiyot va san’at). ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 20(20).
7. BESHIMOV, M. (2022). Amir Said Alimkhan and Young Bukhara residents. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(2), 78-83.
8. Beshimov, M. (2021). Mang’itlar davrida Buxoroda madaniy hayot. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 7(7).

Copyright © Author(s). This article is published under the Creative Commons Attribution (CC BY 4.0) licenses. Anyone may reproduce, distribute, translate and create derivative works of this article (for both commercial and non-commercial purposes), subject to full attribution to the original publication and authors. The full terms of this license may be seen at <https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/legalcode>

**INTERNATIONAL JOURNAL OF PHILOSOPHICAL STUDIES AND
SOCIAL SCIENCES**

ISSN-E: 2181-2047, ISSN-P: 2181-2039

<http://ijpsss.iscience.uz/index.php/ijpsss>

Vol 3, Issue 3 (2023)

9. Beshimov, M. (2022). ABDULVAHID MUNZIM-ENLIGHTENED POET, STATE AND PUBLIC FIGURE. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 2(6), 52-56.
10. Rajabov, O. I. (2022). HISTORY OF FORTRESS OF MAKHMUD TOROBI. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(6), 50-54.
11. Rajabov, O. (2021). CHOR BAKR TARIXIY ME'MORIY MAJMUASI XUSUSIDA. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 8(8).
12. Iskandarovich, R. O. (2022). Historical Architectural Complex of the Chor (Pers. Four) Bakr Ensemble. *Telematique*, 6886-6890.
13. Rajabov, O. (2020). Qizbibi va Hazrat Bibi manzilgohlari muqaddas qadamjo sifatida. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 1(1).
14. Iskandarovich, R. O. (2022). Historical Architectural Complex of the Chor (Pers. Four) Bakr Ensemble. *Telematique*, 6886-6890.
15. ISKANDAROVICH, R. O. (2021). BUKHARA ISLAMIC SCHOLARS VIII-XII CENTURIES. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 1(4), 42-48.
16. Iskandarovich, R. O. (2022). Historical Architectural Complex of the Chor (Pers. Four) Bakr Ensemble. *Telematique*, 6886-6890.
17. Темиров, Ф., & Умаров, Б. (2021). БУХОРО АМИРЛИКДА ОИЛА, НИКОҲ ВА МЕРОС ҲУҚУҚИНинг АМАЛДА ҚЎЛЛАНИШИ. *Scientific progress*, 2(1), 1201-1207.
18. T. F., & UMIDA, X. (2022). PUBLISHING AND LIBRARY ACTIVITIES OF THE TURKESTAN JADIDS. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(1), 26-31.
19. Темиров, Ф., & Исломов, Д. (2021). САДРИДДИН АЙНИЙ-ЗАМОНДОШИ ФИТРАТ ҲАҚИДА. *Scientific progress*, 2(1), 1349-1354.
20. Темиров, Ф., & Халикова, Н. (2021). БУХОРО АМИРЛИГИДА ТАШҚИ СИЁСАТ ВА ДИПЛОМАТИЯНИНГ РИВОЖЛАНИШИ ТАРИХИДАН. *Scientific progress*, 2(1), 1276-1282.
21. Sherzod O'ktam o'g, N. (2023). TARIXCHI OLIM PO 'LAT SOLIYEV ILMUY ME'ROSIDA TURKISTON TARIXIGA OID AYRIM MASALALAR. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(7), 1283-1290.
22. Nosirov, S. (2022). BUXORO AMIRLIGI MAORIF TIZIMIDA YANGI USUL-JADID MAKTABLARINING FAOLIYATI (S. AYNIY XOTIRALARI ASOSIDA). ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 26(26).
23. Nosirov, S. (2022). Sadreddin Ayniy asarlari buxoro inqilobini tarixini o 'rganuvchi manba sifatida. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 26(26).
24. Nosirov, S. (2022). SADRIDDIN AYNIYNING 1917-1920-YILLARDAGI TARIXIY JARAYONLAR BORASIDAGI QARASHLARI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 26(26).
25. Nosirov, S. (2022). САДРИДДИН АЙНИЙ-АҲМАД ДОНИШ ҲАҚИДА. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 26(26).
26. Mubinov Muhammadali. Foreign trade relations of the Bukhara emirate.// EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH. Volume 1 Issue 8, November 2021. –P.287-290.
27. Мубинов М.А. Культурные аспекты жизни и специфические качества ремесла Бухарского эмирата и русско-европейское влияние на эмират (в XIX-XX веках). *International*

**INTERNATIONAL JOURNAL OF PHILOSOPHICAL STUDIES AND
SOCIAL SCIENCES**

ISSN-E: 2181-2047, ISSN-P: 2181-2039

<http://ijpsss.iscience.uz/index.php/ijpsss>

Vol 3, Issue 3 (2023)

Journal of Intellectual and Cultural Heritage Volume: 2 Issue: 02 | 2022 ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314. –C.176-179.

28. MUBINOV M.A. Bukhara emirate at the center of trade and economic relations (based on the works of travelers). // International Journal of Intellectual and Cultural Heritage Volume: 2 Issue: 06 | 2022 ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
29. Komilovich, M. B., & O'g, N. S. O. K. (2023). Abdulvahid Munzim and Young Buharans. *Telematique*, 22(01), 1182-1185.
30. Темиров, Ф., & Умаров, Б. (2021). БУХОРО АМИРЛИКДА ОИЛА, НИКОХ ВА МЕРОС ҲУҚУҚИННИГ АМАЛДА ҚҰЛЛАНИШИ. *Scientific progress*, 2(1), 1201-1207.
31. T. F., & UMIDA, X. (2022). PUBLISHING AND LIBRARY ACTIVITIES OF THE TURKESTAN JADIDS. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(1), 26-31.
32. Темиров, Ф., & Исломов, Д. (2021). САДРИДДИН АЙНИЙ-ЗАМОНДОШИ ФИТРАТ ҲАҚИДА. *Scientific progress*, 2(1), 1349-1354.
33. Темиров, Ф., & Халикова, Н. (2021). БУХОРО АМИРЛИГИДА ТАШҚИ СИЁСАТ ВА ДИПЛОМАТИЯНИНГ РИВОЖЛАНИШИ ТАРИХИДАН. *Scientific progress*, 2(1), 1276-1282.
34. Bobojonova, B. (2022). IDIOMS AND THEIR IMPORTANCE. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2(6), 573-576.
35. Бобојонова, Ф. Х. (2021). БУХОРО МАДРАСАЛАРИ МАЪНАВИЯТ ДУРДОНАСИ. *Scientific progress*, 2(1), 362-366..
36. Bobojonova, F. Issues of construction, material security and organization of activities of madrasas in the Emirate of Bukhara. 2020. *B-213*.
37. Bobojonova, F. X. Bukhara madrassas are a masterpiece of spirituality. SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 2 | ISSUE 1 | 2021 ISSN: 2181-1601 2021. R-362-366.
38. Xayatovna, B. F. (2022). The Issues of Construction of the Bukharan Madrassas, Their Material and Organization of Their Activity. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 3(4), 1-11.
39. Бабаджанова, Ф. Х. (2022). БУХОРОДАГИ МИР-АРАБ МАДРАСАСИ ТАРИХИГА БИР НАЗАР. ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ, (SI-1).
40. Umarov, B. B. O. (2022). SCIENCE, EDUCATION AND CULTURE DURING THE RULE OF THE SOMANIANS. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(6), 46-49.
41. UMAROV, B. (2022). ARCHITECTURE OF BUKHARA IN THE ASHTARKHANID PERIOD. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(2), 94-100.
42. Umarov B. БУХОРО ВОҲАСИ ТУРАР-ЖОЙЛАРИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2022. – Т. 22. – №. 22.
43. BAXTISHOD, U., & ULUG'BEK, Q. Y. (2022). MS ANDREEV-THE GREAT EASTERN SCIENTIST. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 2(3), 120-123.
44. Умаров, Б. Б. (2021). НА КИСЛЯКОВ ТАДҚИҚОТЛАРИДА ЖАНУБИЙ ТОЖИКИСТОН ЭТНИК ТАРИХИ. *Scientific progress*, 1(6), 1005-1009.
45. Умаров, Б. Б. (2021). НА КИСЛЯКОВ-ПОПУЛЯРИЗАТОР МУЗЕЕВ И ИСТОРИИ ТАДЖИКСКОГО НАРОДА. Экономика и социум, (11-2 (90)), 495-497.

**INTERNATIONAL JOURNAL OF PHILOSOPHICAL STUDIES AND
SOCIAL SCIENCES**

ISSN-E: 2181-2047, ISSN-P: 2181-2039

<http://ijpsss.iscience.uz/index.php/ijpsss>

Vol 3, Issue 3 (2023)

46. Ravshanovich, S. D. (2022). CURRENTLY, THE PLACE OF AFGHANISTAN IN THE COMMUNICATION OF CENTRAL AND SOUTH ASIA. International Journal of Intellectual Cultural Heritage, 2(6), 55-59.
47. SHAROPOV, D. (2022). ПРАВИТЕЛЬ МАНГЫТОВ ЭМИР ХАЙДАР. International Journal of Intellectual Cultural Heritage, 2(2), 101-104.
48. Sharopov, D. R. O. G. L. (2021). ARAB XALIFALIGIDAN MUSTAQIL TOHIRIYLAR DAVLATINING AJRALIB CHIQISHI. Scientific progress, 2(7), 817-820.
49. Qudratov Shuxrat, [05.05.2023 10:23]
50. Qudratov S. Qudratov Shuxrat БУХОРО АМИРЛИГИНИНГ ЕВРОПА ВА АМЕРИКА МАМЛАКАТЛАРИ БИЛАН САВДО АЛОҚАЛАРИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.
51. Qudratov Shuxrat, [05.05.2023 10:23]
52. Qudratov S. БУХОРО АМИРЛИГИНИНГ ҒАРБ МАМЛАКАТЛАРИ БИЛАН САВДО АЛОҚАЛАРИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 6. – №. 6.
53. Qudratov Shuxrat, [05.05.2023 10:24]
54. Qudratov S. XIX АСР ОХИРИ XX АСР БОШЛАРИДА БУХОРО АМИРЛИГИДА ҚОРАКЎЛ САВДОСИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.
55. Qudratov Shuxrat, [05.05.2023 10:24]
56. Qudratov S. БУХОРО АМИРЛИГИНИНГ ШАРҚ ХАЛҚЛАРИ БИЛАН САВДО АЛОҚАЛАРИ ТАРИХИДАН //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.
57. Темиров, Ф., & Умаров, Б. (2021). БУХОРО АМИРЛИКДА ОИЛА, НИКОХ ВА МЕРОС ҲУҚУҚИНИНГ АМАЛДА ҚЎЛЛАНИШИ. *Scientific progress*, 2(1), 1201-1207.
58. T. F., & UMIDA, X. (2022). PUBLISHING AND LIBRARY ACTIVITIES OF THE TURKESTAN JADIDS. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(1), 26-31.
59. Темиров, Ф., & Исломов, Д. (2021). САДРИДДИН АЙНИЙ-ЗАМОНДОШИ ФИТРАТ ҲАҚИДА. *Scientific progress*, 2(1), 1349-1354.
60. Темиров, Ф., & Халикова, Н. (2021). БУХОРО АМИРЛИГИДА ТАШҚИ СИЁСАТ ВА ДИПЛОМАТИЯНИНГ РИВОЖЛАНИШИ ТАРИХИДАН. *Scientific progress*, 2(1), 1276-1282.